

## METHODS OF USING ONGOSTI OPPORTUNITIES TO DEVELOP STUDENT TALENT

Hazratqulov Mutallib

Samarkand State University Pedagogy senior lecturer of the faculty.

Kids do fun things right,  
things that aren't interesting  
they think it's wrong.  
(Masaru Ibuka)

### Annotation.

This article describes the content of reforms and changes in the education system. It has been shown that the creative thinking and intelligence of students depends on how we approach the educational process as teachers.

**Keywords:** model, education, homeostasis, psychology, consciousness.

Bugungi kunda Respublikamizda ta'lim jarayoniga e'tibor kundand-kunga ortib bormoqda. Bu o'zgarishlar bizdan juda katta vazifa, burch, fidoyilikni talab qiladi. Har bir yuksak maqsad ko'zlangan ish katta zahmat va qiyinchilikni talab qiladi. Yuksak natijaga erishgan mamlakatlar tadrij davomida shu to'siqni bosib o'tishgan.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya bilan bog'liq islohotlar boshlanib ketgan bo'lsa-da, ba'zida bu jarayon qiyin kechayotgani, qator muammo va to'siqlarga duch kelayotganligimizni ham barchamiz bilib turibmiz. Muammolar chiqayotgan ekan, demak, qayerdadir xatolarimiz bor. Yuz yildan ortiq vaqt sovetlar hukmronligi davri bizning tushuncha va qarashlarimizni anchagina o'zgartirib ulgura olgan. Bugungi kundagi ta'lim jarayonining eski modeli ko'p jihatlari bilan o'zini oqlay olmayapti. Biz yaxshi xodim bo'lishni xohlaymiz, biroq xohishlarimiz istakligicha qolib ketaveradi, o'quvchilarimizning iqtidorli, yuksak intellektli bo'lishini istaymiz, biroq buni qanday bajarishni to'g'ri yo'lga qo'ya olmayapmiz. Muammoni majlislarda tanqid qiladiganlar, muammo sifatida gapiradiganlar ko'p, biroq bajaruvchilar juda ozchilikni tashkil etyapti. Biz yuksak natijalarga tez fursatda erishishimiz uchun bir qancha qarashlarimiz va yondashishlarimizni o'zgartirishga to'g'ri keladi. Ta'lim-tarbiya jarayonining jadvalda ifodalangan modelini qarashlarimizni o'zgartirishga, yangicha yondashishga asoslangan model sifatida tavsiya qilish mumkin.

	<b>Ta'lim-tarbiyadagi hukmron modelga asosan biz amal qiladigan eski qoidalar:</b>	<b>Ta'lim-tarbiyadagi yangi va samarali model:</b>
1	Biz ko'rib turgan barcha narsalar alohidalikka ega bo'lib, biz ham ko'rib turgan narsa-hodisalardan alohidamiz.	Biz ko'rib turgan barcha narsalar mohiyatan bir butunlikka ega. Biz har bir jonli va jonsiz narsalar bilan energetik to'rlar orqali bog'langanmiz.
2	Ta'lim-tarbiya ma'lum bir vaqt, ma'lum holatda olinadigan bilim, ma'lumot bo'lib, uni qabul qilish va berish o'zimizga bog'liq.	Ta'lim-tarbiya jarayoni vaqt, o'rin, makon-zamon uchun ahamiyatsiz, u har lahzada faollikka ega. Maxsus ta'lim jarayonlari bu jarayonning kuchaytirilgan holatidir.
3	Atrofimizdagi muvaffaqiyatsizlikka uchragan odamlarni vaqtida ta'lim va tarbiya olmaganligi uchun shu holatga tushganligini tasdiqlaymiz.	Bizning yonimizdagi muvaffaqiyatsizlikka uchragan deb hisoblaydigan odamlar ayni paytda tarbiyalanish jarayonining eng qaynoq va faol holatida turgan odamlardir.
4	Ta'lim va tarbiya jarayonida bilim olish faqat aqlning faoliyati deb baholaymiz va aqllilik eng muhim kategoriya hisoblanadi.	Ta'lim jarayonida asosan ongosti jarayoni, uning faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.
5	Atrofimizdagi tarbiyasidagi jiddiy kamchiligi bor (jinoatchi, giyohvand, aroqxo'r, janjalkash)	Atrofimizdagi biz jiddiy kamchiligi bor deb hisoblaydigan (jinoatchi, giyohvand, aroqxo'r,



	insonlarni qoralaymiz va hayotiy imkoniyatini deyarli boy bergan inson sifatida baholaymiz.	janjalkash) insonlarda har qanday vaqt va holatda o'zlarini o'zgartirish imkoniyati mavjud. Bu jarayon shu insonning ongosti sathini o'zgartirish bilan bog'liq.
6	Bilim hayotni yaxshilash, yuksak natijalarga erishish maqsadida olinadi. Bilim olish mashaqqatli va ko'p mehnat talab qilinadigan jarayondir.	Bilim o'zimizni o'zgartirishimiz, muvaffaqiyatga erishishimiz uchun olinadi. Bilim olish oddiy, qiziqarli va doimiy, kundalik jarayon. Ta'lim dargohlari bu jarayonni ma'lum qolipga va tartibga solingan ko'rinishi.
7	Olgan bilimlarning shu hayotingni, umringning oxirigacha davom etadigan jarayoningdagina ishlatadigan mahsulotingdir.	Egallagan bilimlarimiz bu moddiy dunyoda muvaffaqiyatga erishishimizdan tashqari, moddiy tanani tark etganimizdan keyin ham ruhiy-enrgetik quvvat sifatida bizda mujassam bo'lib qoladi.
8	O'qituvchining vazifasi belgilangan va tasdiqlangan ma'lumotlarni o'rganuvchilarga qonun-qoidalar asosida yetkazishdan iborat.	O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga hayotni tushuntirish. O'rgatayotgan sohasi, fanini hayot uchun muhimlik, ahamiyatlilik jihatlariga bog'lab ko'rsatib berish.
9	Barcha olgan bilimlarimiz tanamiz va u bilan bog'liq narsalarni rivojlantirish, o'zimizga va boshqa odamlarga qulay sharoit yaratish uchun xizmat qilishi kerak.	Olayotgan bilimlarimiz moddiy holatimizni yaxshilash barobarida ongosti imkoniyatlarimiz, ruhiy holatimizni yaxshilash uchun ham xizmat qilishi kerak.
10	Ta'lim-tarbiya jarayoni axloqsizlik, qoidabuzarlik, jamiytdagi illatlarga qarshi kurash qurolidir.	Ta'lim-tarbiya jarayoni atrof-olamimiz, borliq qanday bo'lsa uni shundayligicha o'rganish va shundayligicha qabul qilish jarayonidir.

Psixologiyada gomeostaz holati mavjud bo'lib, bu ongostining yangi narsa vo hodisalarga duch kelganda oldingi holatini saqlab qolishga urinish holatidir. Ya'ni insonyat qadimdan hayotda ro'y beradigan ulkan o'zgarishlardan jon saqlab qolish maqsadida shu tarzda himoyalangan. Afsuski ijobiy o'zgarishlar qarshisida ham ushbu tug'ma instinktimiz ishga tushib ketadi-yu, bizga muammolar paydo qilib beraveradi.

Bugungi kun ta'limi bolalarni yanada mukammal tushunishimiz, ularning ruhiy olamidan to'liq xabardorlikni talab etadi. 1-2 yoshdagi endigina yurishni boshlagan bola boshini stol qirrasiga urib olsa, biz uni ko'ndirish uchun stol chetini shappatlab urib qo'yamiz. Bola bundan mamnun bo'lib, ko'z yoshini to'xtatib yana harakatda davom etadi. Biz shu yerda juda katta xatoga yo'l qo'yan bo'lamiz. Endi bola katta bo'la boshlar ekan har bir xatosida, har bir noto'g'ri harakatida o'zga narsalarni, o'zga odamlarni ayblab o'rganib qoladi. Har qanday muammoga duch kelganda darrov atrofdagilardan sabab qidirishga tushadi. Aslida biz bilan sodir bo'lgan har qanday muammoning sababchisi faqat va faqat o'zimiz hisoblanamiz. Uning yechimi ham o'zimizda bo'ladi. Biz mana shu haqiqatni tushuna turib bu moddiy olamdagi eng buyuk haqiqatni tushungan bo'lamiz.

Men elektr energiyasini qanday paydo bo'lishini, qanday harakatlanishini, bir so'z bilan aytganda fizikaviy qonuniyatlarni tushunmasam ham, bir narsani bilamanki, chiroq yoqqichni bossam, elektr chiroqlari yonadi. Xuddi shunday gapirganimizda ichimizdan fikrlar chiqadi, bu fikrlar qayerdan paydo bo'lyapti, nimaning evaziga, bilmasak ham undan bemalol foydalaveramiz. So'z hayotimizda muhim o'rin tutadigan barcha narsamizning asosidir.

Farzandlarimizga tarbiya berayotib falon do'stingga o'xshasang bo'lmaydimi, qo'shnimizning o'g'li sendan kichkina bo'lsa ham sendan aqlli deb kamsitganlarimiz, ularning o'zgalarni baholashga, taqqoslashga o'rgatadi. Bola o'zini boshqalar bilan taqqoslar ekan doimo o'zidagi kamchiliklarni chamalaydi va aybdorlikni his qiladi. Eng yomoni bu holatni odatga aylantirib olgach umrbod aybdorlik botqog'iga botib qoladi. Uning qalbi butunlay o'zi uchun ham boshqalar uchun ham yopilib qoladi. Aslida shu paytgacha yer yuziga tushgan qor parchalarining birortasi bir-biriga o'xshamaydi, shu paytgacha yer yuzida yashagan odamlarning barmog'i ham bir-birini takrorlamaydi.

Yer yuzida yashaydigan odamlar bir-biriga o'xshashlari shart emas. Ular betakrorligi bilan ajoyib, betakrorligi bilan rang-barang. Betakrorligi bilan mazmunli. Yevropada kitoblari bilan ancha mashhurlikka ega bo'lgan psixolog Luiza Xey "Bir insonning o'zidan voz kechib boshqaga o'xshashga intilishi uning qalbini quritadi" deganda xuddi mana shu fikrlarni nazarda tutgan edi.. Fikrlar miyaga juda tezlik bilan yetib boradi. Bizning nutq moslamamiz aksincha sekinlik bilan ishlaydi. Shunday qilib ongosti, ichki nutq va tashqi nutqlar orasida katta uzilishlar yuzaga keladi. Bu muammoni bartaraf etolmagan o'qituvchining dars jaryoni bolalarga plastinka qo'yib qo'yan odamga o'xshaydi. Bolalar bu plastinkadan bezib bo'lgan. Ular fonogrammani yomon ko'rishadi. Ularga jonli nutq kerak. Ularning ongi shunga muhtoj. Biroq ular bu e'tirozni sizga ayta olmaydi. Ularning tartibsizliklarini e'tiroz o'rnida qabul qilishingiz mumkin.

Yoshligimizda ota-onamiz "Xonangni yig'ishtir", "Darsingni qil" kabi iboralarni ishlatgan. Biz bu ishlarni ota-onamiz bizni sevish sharti sifatida qabul qilganmiz. Keyin ota-onalarimiz bizni faqat ba'zi narsalarni qilsakkina yaxshi ko'rishadi, degan fikrga o'rganib qolganmiz. Ya'ni shartlilik yuzaga kelib qolgan. Men uy ishlarini qilaman, keyin onam meni yaxshi ko'radi. Odobli bo'laman, o'qituvchimiz meni maqtaydi. Bola zo'r berib sizning shartlaringizni bajarishga kirishadi. Sizni qaysi ma'noda xursand ham qilar, biroq uning asl maqsadi, haqiqiy asl muvozanati yo'qola boradi. U keyinchalik ham shartlilik asosida yashay boshlaydi. Men seni yaxshi ko'rishim uchun mana shu shartlarni bajara olishing kerak, mening farzandim bo'lar ekansan, shu shartlarni qila olishing kerak. Biz hech qanday shartsiz boshqa insonlarni, narsalarni yaxshi ko'ra olishimiz mumkin-ku!

Siz o'qituvchi sifatida sinfga kirishingiz bilan o'quvchilarga katta shart qo'yasiz, hammang bugungi vazifani bajarsang, men sizlarni yaxshi ko'raman va baholayman. O'quvchilar bir marta sizni xursand qilish uchun va baho olish uchun topshirig'ingizni bajaradi. Ikki marta bajaradi. Keyin bu jarayon mantiqsizligi ayon bo'la boshlaydi. Bola yoki bir umr mantiqsiz jarayon ishtirokchisi bo'lib qolaveradi yoki bunga qarshilik qiladi. Siz shartsiz mehr bera olsangiz, shartsiz bilim bera olsangiz, o'quvchilarga shart qo'ymasangiz ham ular topshiriqni bajarishadi. Ular siz uchun emas barchasini o'zlari uchun qilishayotganliklarini tushunishadi.

Yaponiyalik olim Masaru Ibukaning tajribasi bunga yaqqol misol bo'la oladi. U yapon tili darsini o'ta turib katta sinf xonaning bir chetida musiqachilarni shunchaki kirib musiqa chalib o'tirishlarini tayinlaydi. Bolalar ingliz tilini o'rgana turib chiroyli va yoqimli musiqa ovozi ham eshita boshlashadi. Tanaffusda ular musiqachilar oldiga borib musiqa asbobi va kuy haqida so'rab ola boshlaydilar. Hatto ularning ko'pchiligi musiqachi bo'lishni ham xohlashadi. Bu jarayon ularga keyingi dars musiqa darsi ekanligi aytilib, rasmiy ravishda musiqa darslari o'tilgandan ko'ra samarali ta'sir qiladi.

Bolalar dunyoni anglash jarayonida "yaxshi" va "yomon" degan tushunchalarni tezda anglab yetishga harakat qiladilar. Agar biror ish uchun bolani maqtasangiz buni u yaxshi deb qabul qiladi, agar koyish eshita yoki jazolansa buni u "yomon" deb anglaydi. Endi biror dars qilayotganda, yoki til o'rganayotganda uni yaxshi bajaraolmayotgani uchun urushsangiz, bola uchun o'rganish jarayoni "yomon" degan tushunchaga asoslanib qolinadi. Bolada dars jarayoniga nisbatan nafrat paydo bo'ladi.

Bolalar barcha narsalarni obrazli qabul qiladilar. Ular uchun qo'rquvning, yaxshilikning, quvonchning obrazlari bor. Ular shu obrazlar bilan a'lo darajada ishlaydilar. Biz kattalar bu xususiyatni allaqachon unutganmiz va bolalarga ham o'zimiz bilmagan holda xuddi bizdek bo'lishlarini ta'kidlaymiz. Bolalarga nimani bersak ham qabul qila oladi, biz esa bu ishni eplay olmaymiz. Masalan, ko'chada uchragan istagan odamga o'zim ishlatayotgan telefonimni bersam, olishdan oldin o'ylab qoladi, shunki mening nomimga rasmiylashtirilgan telefonni olish, uni o'ziniki qilib olish osonmasligi haqida fikr yuritadi. Ko'chada ketayotgan har qanday yosh bola-chi, u bu

haqda o'ylab o'tirmaydi. Borini qabul qilaveradi. Pul bersangiz ham olaveradi, katta miqdordagi pulning o'rniga xo'rozqand bersangiz ham qabul qilaveradi.

Biz bolalarga nimani gapirsak, nimani tavsiya etsak, boricha qabul qilishadi. Ular qancha suv quysangiz o'ziga tortib oladigan sahrodagi qum uyumiga o'xshashadi.

Har bir darsimiz, bolaga uqtirmoqchi bo'lgan har bir ta'kidimiz hayot bilan bog'liq bo'lishi kerak. Biz uchun hamma vaqt qadrli hisoblanadigan hayotimizga bog'liq har bir narsa biz uchun muhim hisoblanadi. Ayniqsa o'tilayotgan mavzu, dars hayotimizning eng qiziq joylari bilan bog'liq bo'lsa yana ham yoqimli va samarali bo'ladi.

### **Adabiyotlar:**

- 1.Абдуллаев Ю. Жаҳон олий мактаби: қиёсий таҳлил. –Т.: Адабиёт ва санъат, 2001. –288 б.
- 2.Хусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. –368 б.
- 3.Husanboyeva Q. Literature as a factor for development of morality and independent thinking. – Т.: Tamaddun, 2016. –298 b.
- 4.Diane Larsen-Freeman. Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford university press. Great Britian, –2013.
- 5.Nasaru Ibuka. Uchdan keyin kech.Toshkent.akademiknashr.2020.
- 6.Robin Sharma. Eng sara asarlari.Toshkent. Ilm-ziyo-zakovat.2019.
- 7.Jon Kexo. Ong qudrati bolalar xizmatida. Toshkent. Davr press. 2016.